

INGLIZ TILIDAGI TABU BIRLIKLARNING LEKSIK-STRUKTUR TAHLILI

Shermamatova Zaynab Azimjon qizi

SamDChTI “Ingliz tili leksikologiyasi va
stilistikasi” kafedrası katta o‘qituvchisi**Annotatsiya:**

Ushbu maqolada ingliz tilidagi tabu birliklarning leksik-struktur xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda tabu so‘zlarning kelib chiqishi, ularning ijtimoiy va madaniy omillar bilan bog‘liqligi, shuningdek, ularni almashtiruvchi evfemizmlarning shakllanish mexanizmlari o‘rganiladi. Leksik-semantik tahlil orqali tabu birliklarning sinonimik qatori, morfologik tuzilishi va pragmatik vazifalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: tabu, evfemizm, leksik birlik, struktura, ingliz tili, pragmatika, madaniyat.

Til insoniyatning eng muhim ijtimoiy - madaniy hodisalaridan biri bo‘lib, u jamiyatda mavjud bo‘lgan axloqiy me‘yorlar, ijtimoiy qadriyatlar va madaniy cheklovlarni aks ettiradi. Shu nuqtayi nazardan, *tabu* birliklar til tizimining ijtimoiy jihatdan muhim komponentlaridan biridir. Ular inson faoliyatining turli sohalarida, ayniqsa, jinsiy hayot, o‘lim, diniy e‘tiqod va ijtimoiy mavqe bilan bog‘liq mavzularda kuzatiladi. Ingliz tili bu jihatdan boy tizimga ega bo‘lib, tabu birliklarning turli leksik-struktur ko‘rinishlarini namoyon etadi.

R.A.Budagov ta‘kidlaganidek, tabu hodisasi insoniyat tafakkurining dastlabki bosqichlariga borib taqaladi va e‘tiqod bilan chambarchas bog‘liqdir.[5 – 43] Ingliz jamiyatida ham tabu so‘zlarning kelib chiqishi asosan diniy taqiqlar, ijtimoiy axloqiy me‘yorlar hamda ijtimoiy maqom farqlariga asoslanib kelingan. Masalan, “god”, “hell”, “devil” kabi so‘zlar o‘tmishda diniy jihatdan muqaddas yoki qo‘rqinchli ma‘no kasb etganligi sababli, ular ko‘pincha evfemik shakllarda “gosh”, “heck”, “deuce” ishlatilgan. A.A.Reformatskiy tabu va evfemizmlarni tilning ijtimoiy taraqqiyoti bilan bog‘laydi hamda ularni “madaniy nutq etiketi”ning bir qismi sifatida ko‘radi.[6 – 216]

Shu asosdan kelib chiqib, ingliz tilida tabu birliklarni asosan quyidagi semantik toifalarga ajratamiz:

- diniy tabular, “jesus!”, “christ!” kabi so‘zlar o‘rniga “gee!”, “crikey!” ishlatiladi;
- jinsiy tabular, “sex”, “naked”, “intercourse” o‘rniga “intimacy”, “sleep together” kabi yumshoq ifodalar qo‘llanadi;
- ijtimoiy tabu, “old”, “fat”, “disabled” o‘rniga “senior”, “overweight”, “physically challenged” kabi neytral evfemizmlar ishlatiladi;
- o‘lim bilan bog‘liq tabu, “die” o‘rniga “pass away”, “depart”, “go to a better place” kabi evfemik variantlar keng tarqalgan.

Tabu birliklarning leksik-struktur jihatdan o'rganilishi ularning semantik va morfologik xususiyatlarini ochib beradi. Ingliz tilida ko'plab tabu birliklar fonetik yumshatish "e.g., *bloody* → *bloomin*", sinonimik almashtirish "*mad* → *mentally ill*", yoki metaforik ifoda "*to sleep with someone* → *to have a relationship*" orqali neytrallanadi. Bu jarayon tilning dinamik xususiyatini, ya'ni ijtimoiy talablar bilan uyg'unlashuvini ko'rsatadi.

B.Malinowski ta'kidlaganidek, tabu ijtimoiy tizimning axloqiy barqarorligini ta'minlovchi mexanizmdir.[4 – 82]. Bu fikrni ingliz tilshunosi I.V.Arnold ham o'zining "*The english word*" (1973) asarida tasdiqlab, til jamiyatning ijtimoiy-axloqiy tizimiga moslashib borishini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, tabu va evfemizmlar tildagi ijtimoiy etiketni shakllantiruvchi asosiy unsurlardir. Masalan, Arnold ingliz tilida "death" (o'lim), "mad" (ahmoq, aqldan ozgan), "old" (qarilik) kabi so'zlarning bevosita ishlatilishi nojoiz deb hisoblanishini qayd etadi. Ularning o'rniga "pass away", "mentally ill", "senior citizen" kabi evfemik shakllar qo'llaniladi. Bu hodisa til foydalanuvchisining axloqiy sezgirligi va ijtimoiy ma'suliyatini aks ettiradi.[Arnold – 184]

Shuningdek, Arnold "ugly truth" ya'ni "yoqimsiz haqiqat" atamasini ham tabu bilan bog'laydi. Jamiyatda ba'zi haqiqatlar ochiq aytilmaydi, balki madaniy jihatdan yumshatilgan shaklda ifodalanadi. Masalan, "he was dismissed" o'rniga "he was let go" yoki "he is between jobs" kabi yumshoq ifodalar ishlatiladi. Bu nafaqat muloqotdagi muloyimlikni ta'minlaydi,[2-9] balki Malinovskiy ta'kidlaganidek, jamiyatdagi **axloqiy muvozanat**ni saqlashga xizmat qiladi. Allan va Burridj tabu va evfemizmlarni "tilning ijtimoiy qalqoni" sifatida baholaydi.[1 – 25] Ularning fikricha, til foydalanuvchilari noqulay yoki ijtimoiy jihatdan xavfli mavzulardan saqlanish uchun evfemik ifodalardan foydalanadilar. Masalan, "toilet" o'rniga "restroom", "disabled" o'rniga "differently abled", "sex" o'rniga "intimacy" so'zlarining qo'llanishi jamiyatdagi **psixologik qulaylik**ni ta'minlashga xizmat qiladi. I.V.Arnold ham shunga o'xshash tarzda, evfemizmlar tilning "sotsial tozaligi"ni saqlaydi, ya'ni nutqda qo'pol, tajovuzkor yoki noqulay ifodalarning oldini oladi, deya ta'kidlaydi.[2 – 187].

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, tabu va evfemizm birliklari nafaqat diniy va madaniy ildizlarga, balki zamonaviy jamiyatning ijtimoiy, psixologik va kommunikativ ehtiyojlariga ham bog'liq. Ular shaxslar, tashkilotlar yoki hodisalarni yashirish, qo'pol yoki nojoiz iboralardan saqlanish, shuningdek, psixologik stressni kamaytirish maqsadida yuzaga keladi. Leksik va struktur jihatdan ular qisqartmalar, nom o'rinsboshlari, semantik yumshatish yoki professional atamalar orqali ifodalanadi. Shu bilan birga, ingliz tilidagi tabu birliklari tilning semantik boyligini oshirish va ijtimoiy odob-axloq me'yorlarini saqlashda muhim vosita hisoblanadi. Natijada, ular zamonaviy kommunikatsiya jarayonida ijtimoiy moslashuvchanlik va samaradorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Allan K., Burridge, K. Forbidden Words: Taboo and the Censoring of Language. Cambridge: Cambridge University Press, 2006.
2. Arnold I. V. The English Word. Moscow: Vysshaya Shkola. 1973. – p. 184.
3. Арнольд, И. В. Стилистика. Современный английский язык: Учебник для вузов / И. В. Арнольд ; науч. ред. П. Е. Бухаркин. — 4-е изд., испр. и доп. — Москва : Флинта : Наука, 2002. — 383 с
4. Bronislaw Malinowski. Magic, Science and Religion and Other Essays. Beacon press: Boston, 1948
5. Будагов, Р.А. Лингвистическое изучение табу. Москва, 1975
6. Реформатский А.А. *Введение в языковедение: Учебник для вузов* / А.А.Реформатский; под ред. В. А. Виноградова. 5-е изд., испр. Москва: Аспект Пресс, 2004. 536 с.